




**TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI  
(2022- yil yanvar-aprel)**

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatlari va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxona va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtida qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.


2022- yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 716,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 147,3 mln. AQSh dollariga yoki 9,4 %ga ko'paydi.






TSAda eksport hajmi 638,4 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 104,9 %) va import hajmi 1077,6 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 112,2 %) yetdi. Hisobot davrida 439,2 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSh dollarari)



## TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021-yil yanvar-aprelga nisbatan, %da)

### 2022-yil yanvar-aprel





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollar)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Rossiya Federatsiyasi	381,7	122,4	259,3	22,2
Xitoy	365,0	123,8	241,2	21,3
Qozog'iston	294,6	39,5	255,1	17,2
Turkiya	266,4	217,4	49,0	15,5
Braziliya	67,0	0,0	67,0	3,9
Ukraina	26,0	10,4	15,6	1,5
Italiya	24,2	8,9	15,3	1,4
Tojikiston Respublikasi	23,6	17,5	6,1	1,4
Afg'oniston	23,5	23,3	0,2	1,4
Koreya Respublikasi	19,9	2,6	17,3	1,2
Germaniya	19,3	3,6	15,7	1,1
Qirg'iz Respublikasi	17,9	10,9	7,0	1,0
Polsha	17,5	5,2	12,3	1,0
Belarus	13,4	8,3	5,1	0,8
Eron (Islom Respublikasi)	11,1	0,8	10,3	0,6
Ozbarbayjon	10,8	2,2	8,6	0,6
Pokiston	9,8	0,7	9,1	0,6
Niderlandiya	8,8	6,3	2,5	0,5
Daniya	8,5	0,0	8,5	0,5
Avstriya	8,5	2,2	6,3	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,3 %ni hamda o'sish sur'ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 107,4 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning yanvar-aprel oylarida 54,7 %ni (2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,9 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,1 %ni tashkil etdi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJUY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2022- yil yanvar-aprel, % hisobida)






## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJUY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2022- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollarri)

MDH davlatlaridan Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davatlardan tashqari) esa Turkiya, Braziliya va Ukraina davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-aprel)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko'mak berilmoqda.

2022-yil yanvar-aprel oyi yakuni bilan 638,4 mln. AQSh dollari qiymatdag'i (2021- yilning shu davriga nisbatan 104,9 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,2 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (72,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,7 %), turli xil tayyor buyumlar (9,5 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (3,9 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (2,8 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalar (1,9 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Sanoat tovarlari
- Turli xil tayyor buyumlar

- Ichimliklar va tamaki
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabilar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Xizmatlar



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA  
XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar-aprel)**

Tarkibi	Mln. AQSh dollarari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	<b>638,4</b>	<b>214,2</b>	<b>424,2</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	55,4	22,0	33,4	8,7	10,3	7,9
Ichimliklar va tamaki	1,1	1,1	0,0	0,2	0,5	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	24,7	13,1	11,6	3,9	6,1	2,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	0,3	0,2	0,1	0,0	0,1	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,1	0,0	0,0	0,05	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	17,7	13,1	4,6	2,8	6,1	1,1
Sanoat tovarlari	462,5	92,6	369,9	72,4	43,25	87,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalarini	12,3	12,0	0,3	1,9	5,6	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	60,7	58,9	1,8	9,5	27,5	0,4
Xizmatlar	3,6	1,1	2,5	0,6	0,5	0,6





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR  
VA XIZMATLAR EKSPORTINING O'SISH SUR'ATLARI  
(2022- yil yanvar-aprel)**

2022- yilning yanvar-aprel oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o'sish kuzatildi.


Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>104,9</b>	<b>112,2</b>	<b>101,6</b>

shu jumladan:

oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	91,8	79,9	101,7
Ichimliklar va tamaki	169,6	177,3	85,5
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	92,8	88,9	97,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	6,2 m.	197,6 m.	110,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	13,7	3,0 m.	1,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	97,8	113,7	69,8
Sanoat tovarlari	104,7	109,4	103,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	113,1	182,8	7,4
Turli xil tayyor buyumlar	132,7	131,2	2,1 m.
Xizmatlar	103,6	2,6 m.	82,3



## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-aprel)



Shulardan 7 ta eng yirik bo‘lgan Turkiya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘izton, Afg‘oniston, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 554,8 mln. AQSh dollariga teng bo‘lib, bu umumiy eksport hajmining 86,9 %ini tashkil qiladi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo‘lgan 27,6 mln. dollar qiymatga ega 41,7 ming tonnadan ziyod qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2021- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 49,0 %ga kamaygan, naturada – 25,2 %ga kamaygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 18,3 mln. AQSh dollariga teng 34,4 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 35,0 %ga kamaygan), shuningdek, 4,5 mln. AQSh dollari qiymatidagi 3,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o‘zgarish sur’ati 14,3 %ga kamaygan).

### 2022- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari



Meva va  
rezavorlar  
3,2 ming  
tonna  
4,5 mln.  
AQSH dollari

Uzum  
2,6 ming  
tonna  
2,8 mln.  
AQSH dollari

Yeryon-  
g'oqlar  
1,5 ming  
tonna  
2,0 mln.  
AQSH dollari

Sabzavotlar  
34,4 ming  
tonna  
18,3 mln. AQSH  
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar-aprel oyida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 27,6 mln. AQSH dollariga teng bo‘lib, jami eksport hajmining 4,3 %ini tashkil qiladi.




**TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI  
(2022-yil yanvar-aprel)**

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxona va tashkilotlar holati o‘rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-aprel oyi mobaynida import hajmi 1077,6 mln. AQSh dollarni (2021-yilning shu davriga nisbatan o‘zgarish sur’ati 112,2 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (21,1 %), sanoat tovarlari (20,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (19,8 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (17,4 %), hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (10,5 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar
- Sanoat tovarlari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar

- Ichimliklar va tamaki
- Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Boshqa turdag'i tovarlar



**MDH VA BOSHQA XORIJY DAVLATLAR KESIMIDA  
XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar-aprel)**

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumi hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>1077,6</b>	<b>562,6</b>	<b>515,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	213,9	104,0	109,9	19,9	18,5	21,3
Ichimliklar va tamaki	1,0	1,0	0,0	0,1	0,2	0,0
Nooziq-ovqat xom- ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	187,9	175,1	12,8	17,4	31,1	2,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	43,4	42,5	0,9	4,0	7,6	0,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	17,7	17,4	0,3	1,6	3,1	0,05
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	112,7	29,7	83,0	10,5	5,3	16,1
Sanoat tovarlari	221,2	158,3	62,9	20,5	28,1	12,2
Mashinalar va transport asbob-uskulalari	227,0	23,8	203,2	21,1	4,2	39,45
Turli xil tayyor buyumlar	47,3	8,6	38,7	4,4	1,5	7,5
Boshqa tovarlar	1,9	1,9	0,0	0,2	0,35	0,0
Xizmatlar	3,6	0,3	3,3	0,3	0,05	0,7

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (31,1 %), sanoat tovarlari (28,1 %), MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskulalari (39,45 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (21,3 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.




**MDH VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARDAN TOVAR VA  
XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI  
(2022- yil yanvar-aprel, % hisobida )**

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>112,2</b>	<b>105,7</b>	<b>120,4</b>
<b>shujumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	145,9	144,6	147,1
Ichimliklar va tamaki	42,3	44,6	5,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	98,1	96,1	138,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	96,4	95,6	170,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	67,9	70,2	25,4
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	158,1	140,7	165,4
Sanoat tovarlari	121,5	120,4	124,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	92,6	52,3	101,9
Turli xil tayyor buyumlar	125,4	2,5 m.	112,9
Boshqa tovarlar	71,5	71,5	-
Xizmatlar	37,8	11,8	46,0





## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-aprel)



Shulardan 7 ta eng yirik bo‘lgan Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘izton, Koreya Respublikasi, Braziliya, Turkiya va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 904,6 mln. AQSh dollariga teng bo‘lib, bu umumiy import hajmining 83,9 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo‘limi  
Tel.: (71) 202-86-59**